ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA TALAFFUZ MALAKALARINI PARALLEL RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mamadiyeva Dilafruza Murodullo qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi.
@dilafruzamamadiyevagmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24079653

Annotatsiya. *Maqolada zaif eshituvchi bolalarga savod o‘rgatish jarayonida talaffuz malakalarini parallel rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Muammoning dolzarbligi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi rasmiy idoralarining so‘nggi statistik ma’lumotlari, jumladan, hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlar asosida dalillab berilgan. Ushbu maqolada savod o‘rgatish va talaffuz ustida ishlashni alohida, ketma-ket jarayonlar sifatida emas, balki yagona didaktik jarayonda parallel shakllantirish g‘oyasi ilgari suriladi: har bir tovush-harf birligi bir vaqtning o‘zida eshitish-ko‘rish, artikulyatsion-kinestetik va grafik kanallar orqali o‘zlashtiriladi. Mazkur yondashuv o‘qish texnikasi, nutqning tushunarliligi va og‘zaki muloqotga tayyorgarlikni o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga xizmat qilishi, ixtisoslashtirilgan maktablar va inklyuziv ta’lim amaliyoti uchun ilmiy-metodik asos bo‘la olishi ko‘rsatilgan. Berilgan ma’lumotlar savod o‘rgatish darslarini rejalashtirish, talaffuz ustida ishlashni individuallashtirish hamda o‘qituvchi-defektologlarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *zaif eshituvchi bolalar, savod o‘rgatish, talaffuz malakalari, bilish jarayonlari, eshitish qoldig‘i, surdopedagogika, koxlear implantatsiya, yosh xususiyatlari.*

Kirish. Bola kitobdagi harfni ilk bor ovoz chiqarib o‘qiganda u faqat belgini tanimaydi: u o‘z ovozini eshitadi, uni tuzatadi va so‘z ma’nosiga yetib boradi. Eshituvchi bola uchun tabiiy bo‘lgan bu «ovoz – harf – ma’no» zanjiri zaif eshituvchi bolada uziladi: u harfni ko‘radi, ammo uning ovozli qiyofasini to‘liq idrok eta olmaydi, talaffuz qiladi, biroq o‘z nutqini nazorat qila olmaydi. Savod va talaffuzni bir-birini mustahkamlovchi jarayonga aylantirish muammosi aynan shu nuqtada tug‘iladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishdagi eng murakkab masalalardan biri og‘zaki nutqni shakllantirish bilan yozma nutqni, ya'ni savodni, bir-biriga bog‘lab olib borishdir.

Eshituvchi bola harf va tovush o‘rtasidagi bog‘lanishni qulog‘i bilan eshitib, o‘zi gapirib o‘rganadi. Zaif eshituvchi bolada esa bu yo‘l qisman yopiq: u tovushni yetarli darajada eshitmaydi, eshitgani ham ko‘pincha buzilgan holda yetib boradi.

Shu sababli bolaga harfni ko‘rsatib o‘qitishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, harf ortidagi tovushni uning idrokida va nutqida ham shakllantirish kerak bo‘ladi. Talaffuz va savod o‘rgatishni parallel olib borish g‘oyasining mohiyati aynan shunda.

Muammoning ko‘lamini baholash uchun avval demografik holatga e'tibor qaratamiz.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida O‘zbekistonda 0–14 yoshdagi bolalar soni 11 million 630 ming 879 nafarni tashkil etgan [1]. Milliy statistika qo‘mitasi xabariga ko‘ra, 2025-yil davomida mamlakatda 879 599 ta tirik tug‘ilish qayd etilgan [2]. Ularning viloyatlar kesimidagi taqsimoti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. 2025-yilda O‘zbekistonda tirik tug‘ilganlar soni (hududlar kesimida)

Hudud	Tug‘ilganlar	Hudud	Tug‘ilganlar
Samarqand viloyati	106 266	Toshkent shahri	62 318
Qashqadaryo viloyati	99 656	Xorazm viloyati	46 056
Farg‘ona viloyati	98 319	Buxoro viloyati	43 654
Surxondaryo viloyati	81 885	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	39 277
Andijon viloyati	79 672	Jizzax viloyati	37 393
Namangan viloyati	75 689	Navoiy viloyati	24 127
Toshkent viloyati	64 245	Sirdaryo viloyati	21 042

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p tug‘ilish Samarqand (106 266), Qashqadaryo (99 656) va Farg‘ona (98 319) viloyatlarida qayd etilgan; bu uch hududga respublikadagi barcha tug‘ilishlarning qariyb 35 foizi to‘g‘ri keladi. Eng kam ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida (21 042).

Bu raqamlar eshitishni erta tekshirish va surdopedagogik yordamga bo‘lgan ehtiyoj mutlaq sonda aynan katta hududlarda yuqori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar sonining 2025–2026-yillar bo‘yicha viloyatlar kesimidagi alohida rasmiy ko‘rsatkichlari biz ko‘rib chiqqan ochiq manbalarda e'lon qilinmagan. Shu sababli jadvaldagi ma'lumotlar faqat demografik asos sifatida berildi va ular asosida hududlar bo‘yicha eshitish nuqsoniga oid taxminiy raqamlar hisoblanmadi.

Eshitish nuqsoniga bevosita tegishli ma'lumotlar asosan respublika darajasida mavjud.

O‘zbekistonda eshitish nuqsonlarining uchrash darajasi har 1000 chaqaloqqa 2 tani tashkil etadi, bunday bolalar soni yiliga 85–170 nafarga ko‘payib borgan, koxlear implantatsiyaga ehtiyoj esa 2000 dan ortiq bolani tashkil etgan [3]. Tadqiqotlarda keltirilishicha, 9 yil davomida respublikaning barcha hududlaridan kelgan 2102 nafar bolaga koxlear implantatsiya o‘tkazilgan, bolalarning implantatsiya paytidagi yoshi 2014-yildagi 4,6 yoshdan 2023-yilda 1,3 yoshgacha kamaygan. Implantatsiyadan oldin nutqi yoshiga mos kelmagan bolalar ulushi 2014-yilda 100 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 61,8 foizni tashkil etgan [3].

Bundan tashqari, 2019-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston karlar jamiyatida eshitish imkoniyati cheklangan 21 212 nafar shaxs ro‘yxatga olingani qayd etilgan [4]. 2026-yil boshidagi demografik ma'lumotlar bilan birga e'lon qilingan nashrda esa joriy yilda eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarda 500 dan ortiq koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilishi ko‘zda tutilgani aytilgan [1]. Ko‘rinib turibdiki, texnik imkoniyatlar kengayib, bolalar kamroq yoshda eshitish vositalariga ega bo‘lmoqda. Bu esa ularni savodga tayyorlash va talaffuzni shakllantirish ishini ham erta yoshdan boshlash zarurligini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi zaif eshituvchi bolalarga savod o‘rgatish jarayonida talaffuz malakalarini parallel rivojlantirishning nazariy asoslarini, bolaning yosh va bilish jarayonlari xususiyatlarini nutq rivojlanishi bilan bog‘lagan holda, ilmiy adabiyotlar asosida aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishining nazariy asosini L.S. Vigotskiy ishlab chiqqan qoidalar tashkil etadi. U nuqsonning birlamchi (organik) va ikkilamchi (ijtimoiy-psixologik) oqibatlarini farqlagan: eshitishning pasayishi birlamchi nuqson bo‘lsa, nutqning rivojlanmay qolishi va undan kelib chiqadigan aqliy rivojlanishdagi sustlik ikkilamchi hisoblanadi [5].

Ikkilamchi oqibatlarni to‘g‘ri tashkil etilgan ta'lim bilan oldini olish yoki yengillashtirish mumkin, bola esa nuqsonni o‘zgacha, ya'ni aylanma yo‘llar orqali kompensatsiya qiladi, degan fikr surdopedagogikaning hozirgi qarashlariga ham asos bo‘lib kelmoqda.

R.M. Boskisning asari karlar va zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish yo‘llarini alohida ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan [6]. Karlar maktabida talaffuz o‘rgatish metodikasi F.F. Rau va N.F. Slezinaning ishida tizimli bayon etilgan [7]. Surdopedagogikada talaffuz ustida ishlaganda eshitish qoldig‘idan tashqari ko‘rish, taktil-vibratsion va kinestetik sezgilarga ham tayaniladi.

I.M. Solovyov va T.G. Bogdanovaning ishlarida esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyati, ya'ni idrok, xotira va tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari psixologik jihatdan yoritilgan [8; 9].

O‘zbek surdopedagogikasida P. Po‘latova, Z. Mamarajabova, L. Nurmuxamedova va boshqa mualliflarning darsligi hamda Z.N. Mamarajabovaning o‘quv qo‘llanmasi eshitish nuqsonlarining tasnifi, korreksion-pedagogik ishning mazmuni va ta'lim usullarini tizimlashtirgan [10; 11]. Savod masalasiga bevosita U.Y. Fayziyeva murojaat qilgan: uning tadqiqoti zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatishga bag‘ishlangan [12].

Eshituv idrokini rivojlantirish, tilning grammatik tizimini shakllantirish va so‘zlashuv nutqini o‘stirish masalalari N. Bekmuradov, F. Alimjo‘jayeva, F. Qodirova, D. Nazarova va X.M. Gaynutdinovning ishlarida ham tadqiq etilgani qayd etilgan [13].

Yaqin yillardagi nashrlarda mavzu yangi texnik imkoniyatlar bilan birga ko‘rilmoqda. G. Abdulxamidova karlik va zaif eshituvchanlikni farqlab, zaif eshituvchi bolada eshitish qoldig‘i asosida nutq zaxirasini mustaqil egallash imkoniyati minimal darajada saqlanishini, nutq rivojlanishi esa to‘rt omilga — eshitish darajasiga, nuqson paydo bo‘lgan vaqtga, bolaning individual xususiyatlariga va unga yaratilgan pedagogik sharoitga bog‘liqligini ta'kidlaydi [13].

M. Po‘latxo‘jayeva maktabgacha yoshdagi bolalarning neyropsixologik xususiyatlarini, eshitish nuqsonining dastlabki belgilarini va mayda qo‘l motorikasi bilan nutq o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [14]. X.S. Raximova va S. Akbarovning maqolasi koxlear implantli bolalarda eshitish idroki va talaffuzni shakllantirish usullariga bag‘ishlangan; unda nonutqiy va nutqiy tovushlarni farqlashga o‘rgatuvchi didaktik vositalar turlari ajratilgan [15].

Ko‘rib chiqilgan manbalarda talaffuz ishi, savod o‘rgatish va bilish jarayonlarini rivojlantirish ko‘proq alohida yo‘nalishlar sifatida yoritilgan. Ularni bitta pedagogik jarayon ichida parallel olib borishning nazariy asoslari, ayniqsa o‘zbek tili materialida, kamroq tizimlashtirilgan ko‘rinadi. Maqola shu masalani yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola nazariy xarakterga ega. Unda surdopedagogika, rivojlanish psixologiyasi va nutq rivojlanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo‘llandi.

Natijalar va muhokama. Eshitish nuqsonining nutqqa ta'siri hamma bolada bir xil emas.

Zaif eshituvchi bolada eshitish qoldig‘i saqlanib qoladi va undan foydalanib nutq zaxirasi to‘planishi mumkin, karlikda esa nutqni mustaqil egallash kuzatilmaydi [13]. Nutqiy rivojlanish darajasi eshitish darajasi, nuqson paydo bo‘lgan vaqt, bolaning individual xususiyatlari va uning uchun yaratilgan pedagogik sharoitga bog‘liq [13]. Bu omillar ichida o‘qituvchi eng ko‘p ta'sir qila oladigani oxirgisi, ya'ni pedagogik sharoitdir. Savod va talaffuzni parallel o‘rgatish aynan shu omilni kuchaytirishga qaratilgan.

Muammo erta yoshdan boshlanadi. M. Po‘latxo‘jayeva keltirgan P.A. Yann fikriga ko‘ra, korreksion-pedagogik ish qanchalik erta boshlansa, bolaning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyalari shunchalik muvaffaqiyatli shakllanadi [14].

Koxlear implantatsiya tajribasi ham erta yoshning ahamiyatini ko‘rsatadi: O‘zbekistondagi to‘qqiz yillik tajribada implantatsiya yoshi kamayib borgan bir paytda nutqi yoshiga mos kelmaydigan bolalar ulushi 2014-yildagi 100 foizdan 2023-yilda 61,8 foizgacha tushgan [3]. Albatta, bu ikki o‘zgarishni faqat bir-biriga bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya ham katta rol o‘ynagan. Ko‘p tadqiqotlarda reabilitatsiya muvaffaqiyati implantning yoshi, implantatsiya paytidagi nutq va qoldiq eshitish darajasi, mashg‘ulotlarning muntazamligi hamda qo‘shimcha kasalliklarning bor-yo‘qligiga bog‘liq ekanini yozadi [15].

Eshitish pasayishining belgilari bolaning yoshiga qarab turlicha ko‘rinadi [14]. Emizikli bolalarda baland tovushlarga javobning sustligi, tovush manbaiga e'tibor qaratmaslik, kam tovush chiqarish va mimika orqali muloqot qilish kuzatiladi. Kichik yoshda imo-ishora orqali muloqotga moyillik kuchayadi, so‘zlarni aytish qiyinlashadi, nutq rivojlanishi kechikadi.

Maktabgacha yoshda nutqning tushunarsizligi, muloqotga qiziqishning pasayishi va ehtiyojni ifodalashdagi qiyinchiliklar birinchi o‘ringa chiqadi. Maktab yoshida esa tortinchoqlik, tengdoshlar bilan muloqotdan qochish, so‘zlarni qaytarishni so‘rash va savolga noto‘g‘ri javob berish ko‘proq uchraydi [14].

Bu yosh dinamikasi savod o‘rgatishning boshlanish vaqti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Bola maktabga kelganda savodga tayyorlik uchun zarur ko‘nikmalar, ya'ni tovushlarni farqlash, so‘zni bo‘g‘in va tovushlarga ajratish, tovushni aniq aytish ko‘pincha hali shakllanmagan bo‘ladi. Savod o‘rgatishni talaffuz ishi tugaguncha keyinga qoldirish bolaning nutqiy va yozma rivojlanishidagi tafovutni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, ikkala ishni bir-biriga bog‘lab, maktabgacha yoshdan boshlash savodga tayyorgarlikni ham oldindan ta'minlaydi.

Po‘latxo‘jayeva ham bog‘cha, maktab, kollej va oliy ta'lim bosqichlaridagi reabilitatsion-pedagogik ishlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lishi kerakligini ta'kidlaydi [14].

Eshitish analizatorining cheklanganligi tufayli bola atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qabul qilishda qiyinchilikka duch keladi [14]. Natijada ko‘rish idroki asosiy axborot kanaliga aylanadi. Shuning uchun talaffuz va savod o‘rgatishda ko‘rinadigan tayanchlar, ya'ni rasm, harf kartochkasi, oyna va artikulyatsiyani kuzatish muhim o‘rin tutadi. Implantli bolalar bilan ishlashda rasmlar mashg‘ulotlarning dastlabki davrida ayniqsa keng qo‘llanishi, bola rasmni ko‘rib so‘zni avval yaxlit holda, alohida tovushlarga ajratmasdan idrok etishi qayd etilgan [15].

Demak, savod o‘rgatishda ham so‘zni yaxlit idrok etishdan boshlab, keyin tovush tahliliga o‘tish mantiqiy yo‘l hisoblanadi.

Eshitish idroki ko‘rish bilan almashtirilmaydi, uni alohida rivojlantirish kerak. Bunga eshitish qoldig‘ini rivojlantirish orqali erishiladi, buning uchun bola ovozni kuchaytiruvchi apparat yoki implantdan muntazam foydalanishi zarur [15].

Olimlar mayda qo‘l motorikasi bilan nutq faoliyati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik borligini, barmoq harakatlarining faollashuvi diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlariga ijobiy ta'sir qilishini ta'kidlaydi; shuningdek, mayda predmetlar bilan bajariladigan mashqlar yozuvga tayyorgarlik uchun muhim asos yaratishini qayd etadi [14]. Demak, savod o‘rgatishdagi yozuv bosqichi talaffuz ishidan mustaqil emas: barmoq mashqlari, mayda predmetlar bilan ishlash va rasm chizish ham nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

L.S.Vigotskiyga ko‘ra, so‘z tafakkur quroli, nutq esa bolaning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish vositasi; nutq rivojlanmay qolsa, aqliy rivojlanishning boshqa tomonlarida ham sustlik yuzaga kelishi mumkin [5]. Surdopsixologiya ishlarida bu holat bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi, xususan, ko‘rgazmali tafakkurning ustunligi va so‘zli-mantiqiy tafakkurning

sustroq shakllanishi bilan bog‘lab tushuntiriladi [8; 9]. Shu ma'noda talaffuz malakasi faqat to‘g‘ri tovush chiqarish emas. Bola so‘zni aniq aytsa, uni atrofdagilar tushunadi, bola esa javob oladi va so‘zning ma'nosini mustahkamlaydi. Shu tariqa talaffuz, so‘z zaxirasi va tafakkur bir-birini oziqlantiradi.

Nutqiy muloqot cheklanganda bolada tortinchoqlik, ishonchsizlik va ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatiladi [14]. Mashg‘ulotda bola har xatosi uchun tanbeh eshitsa, u gapirishdan ham, yozishdan ham qochishi mumkin. Shu bois Raximova va Akbarov kichik bolalarda har qanday ovoz chiqarish va gapirishga urinishni rag‘batlantirishni, bolani majburlamasdan, qiziqib turgan paytida ishlashni tavsiya etadi [15].

Yuqoridagi tahlil ikkala ishni bir jarayonda olib borishni to‘rtta nazariy asos bilan izohlashga imkon beradi. Birinchisi lingvistik asos: o‘zbek yozuvi asosan fonetik tamoyilga tayanadi, ya'ni harf ko‘p hollarda aniq bir tovushni bildiradi. Zaif eshituvchi bola harfni o‘rganganda uning tovush qiymatini ham aniq bilishi kerak, aks holda yozuv mexanik belgilar to‘plamiga aylanib qoladi. Ikkinchisi psixologik asos: so‘z bolaning tafakkurida tovush, harf va ma'noning birligi sifatida mustahkamlanadi. Shu birlikning bir qismi, masalan tovush, yetishmasa, so‘z ma'nosi ham noaniq qoladi [5]. Uchinchisi sensor asos: Bolaning eshitishi cheklangan ekan, tovush bir necha kanal orqali beriladi, eshitish qoldig‘i va apparat imkoniyatlari to‘liq ishga solinadi, ularga ko‘rish (artikulyatsiyani oynada kuzatish, harf va rasm), taktil-vibratsion (qo‘lni yuzga yoki bo‘yinga qo‘yib ovozni sezish) va kinestetik (til va lab holatini sezish) idroklar qo‘shiladi [7; 15]. Shu tariqa bitta tovush eshitiladi, ko‘riladi, sezilib aytiladi va yoziladi. To‘rtinchisi rivojlanish asosi: erta va tizimli ish ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiladi [5; 14], talaffuz bilan savodning uyg‘unligi esa bu ishning mazmunini bir butun qiladi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda eshitish vositasidan foydalanish shartlari ham hisobga olinadi: bola implant yoki apparatni doim taqib yurishi, mashg‘ulot shovqinsiz joyda o‘tishi, pedagogning yuzi bolaga ko‘rinib turishi va bola tushunmasa kalit so‘zlarni sekinroq, aniq takrorlash kerak [15]. Oila bilan hamkorlik ham muhim: oila bilan samarali aloqa yo‘lga qo‘yilmasa, bolaning to‘laqonli reabilitatsiyasi murakkablashadi [14], tabiiy sharoitda esa etakchi rolni ota-onalar bajaradi [15]. Natijalarni qo‘llashda eshitish nuqsonining darajasi, paydo bo‘lgan vaqti va bolaning individual xususiyatlari albatta hisobga olinishi kerak [13]: bir bolaga mos ketma-ketlik boshqasiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, zaif eshituvchi bolalarga savod o‘rgatish va talaffuz malakalarini shakllantirish bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan jarayondir. Birinchidan, eshitish nuqsoni nutqning ikkilamchi rivojlanmay qolishiga olib kelishi mumkin, uni oldini olishda eng ko‘p o‘qituvchi ta'sir qila oladigan omil pedagogik sharoitdir. Ikkinchidan, bolaning yosh xususiyatlari, ya'ni emizikli, kichik, maktabgacha va maktab yoshidagi o‘zgarishlar nutq va muloqot holatida turlicha namoyon bo‘ladi, shuning uchun ish erta boshlanishi va bosqichlararo uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak. Uchinchidan, idrok, diqqat, xotira, mayda motorika va tafakkurning o‘ziga xosligi talaffuz va savodni ko‘p kanalli tayanchlarga, ya'ni eshitish qoldig‘i, ko‘rish, taktil-vibratsion va kinestetik sezgilarga tayangan holda o‘rgatishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi O‘zbekistonda bolalar tibbiyoti rivoji // UZA. — 2026. URL: https://uza.uz/ar/posts/yangi-ozbekistonda-bolalar-tibbiyoti-rivoji_864300

2. Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda O‘zbekistonda 879,6 ming ta tug‘ilish qayd etildi. URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66611-2025-jilda-zbekistonda-879-6-mingta-tu-ilish-ajd-etildi-2 (hududlar kesimidagi to‘liq ro‘yxat: https://www.afisha.uz/uz/gorod/2026/02/03/tugilish).
3. Inoyatova F.I., Primako V.I., Rizaev J.A. Eshitish qobiliyati zaif bolalarga yuqori ixtisoslashtirilgan yordam ko‘rsatishni tashkil etish – O‘zbekistonda koxlear implantatsiya bo‘yicha 9 yillik tajriba // Doktor axborotnomasi. — 2023. — №4 (112). — B. 17–21. DOI: 10.38095/2181-466X-20231124-17-21. URL: https://sammu.uz/en/article/3478/download
4. Toshkentda koxlear implantatsiya bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi // Kun.uz. — 14.11.2022. URL: https://kun.uz/news/2022/11/14/toshkentda-koxlear-implantatsiya-boyicha-xalqaro-konferensiya-bolib-otdi
5. Выготский Л.С. Основы дефектологии. — СПб.: Лань, 2003. — 654 с.
6. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. — М.: Академия педагогических наук РСФСР, 1963. — 335 с.
7. Рау Ф.Ф., Слезина Н.Ф. Методика обучения произношению в школе глухих. — М.: Просвещение, 1981. — 191 с.
8. Соловьев И.М. Психология познавательной деятельности нормальных и аномальных детей. — М.: Просвещение, 1966. — 224 с.
9. Богданова Т.Г. Сурдопсихология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Академия, 2002. — 224 с.
10. Po‘latova P., Mamarajabova Z., Nurmuxamedova L. va b. Maxsus pedagogika: darslik. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014.
11. Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (surdopedagogika): o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2017.
12. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish: ped. fan. nomz. diss. avtoref. — Toshkent: TDPI, 1994. — 18 b.
13. Abdulxamidova G. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati // O‘zMU xabarlari. — 2022. — №1/7. — B. 29–31. — ISSN 2181-7324.
14. Po‘latxo‘jayeva M. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasida neyropsixologik faoliyatning o‘ziga xosligi // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. — 2026. — 18-C son, 2-maqola. — B. 9–12. ISSN 2181-1695. URL: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/1712/1436/2256
15. Raximova X.S., Akbarov S.S. Koxlear implantli bolalarni eshitish idroki va nutqini shakllantirish orqali inklyuziv jamiyatga integratsiya qilish // journal.namdu.uz. — 2023. — 6-son. URL: https://journal.namdu.uz/archive/2023-issue-6/maqola-36205-1682006079/pdf